

# Xizmatlar sohasining rivojlanishi

(dastlabki ma'lumotlar)

2018 yil yanvar-mart

## RAQAMLAR:

- 2018 yil yanvar-mart oylarida bozor xizmatlari hajmi 824,9mlrd.so'mni tashkil etdi.
- Moliyaviy xizmatlarning o'sish sur'ati 135,1 % ni tashkil etdi.
- Aholi jon boshiga xizmatlar hajmi 859,6 ming.so'mni tashkil etdi.

Zamonaviy dunyoda xizmatlar sohasi iqtisodiyotning eng istiqbolli va jadal rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Ko'rsatilayotgan bozor xizmatlari turlarining ro'yxati juda xima-xil bo'lib, bular savdo va transport xizmatlaridan tortib moliyaviy, sug'urta va turli xil vositachilik xizmatlaridan iborat.

Viloyatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar doirasida chora-tadbirlarning davom ettirilishi xizmatlar sohasini jadal rivojlantirish imkonini bermoqda. Natijada, 2018 yil yanvar-mart oylarida xizmatlar ishlab chiqarish hajmi 824,9 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Bozor xizmatlarining eng katta hajmi savdo xizmatlari, transport xizmatlari, moliyaviy xizmatlar, aloqa va axborotlashtirish xizmatlarida kuzatilmoqda.

## Xizmatlar tarkibida ulushi katta bo'lган xizmat turlari, mlrd.so'm

300,3 mlrd so'm  
**Savdo xizmatlari**

164,9 mlrd so'm  
**Transport xizmatlari**

101,9 mlrd so'm  
**Moliyaviy xizmatlar**

50,3 mlrd so'm  
**Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari**

207,5 mlrd so'm  
**Boshqa xizmatlar**

**2018 yil yanvar-mart oylarida hududlar bo'yicha  
xizmatlar ishlab chiqarish hajmi**


	Hajmi, mln.so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da
<b>Navoiy viloyati</b>	<b>824 922,0</b>	<b>110,5</b>
Navoiy sh	476 957,3	108,3
Zarafshon sh	60 499,2	117,8
tumanlar:		
Karmana	97 202,1	117,2
Konimex	10 040,6	103,1
Qiziltepa	53 703,2	108,9
Navbahor	29 010,1	109,2
Nurota	19 073,1	110,5
Tomdi	6 199,3	101,5
Uchquduq	28 217,6	121,5
Xatirchi	44 019,5	111,3

Hududlar o'ttasida eng katta hajm Navoiy shahri (476957,3 mln.so'm), Zarafshon shahri (60499,2 mlrd.so'm), Karmana (97202,1 mln.so'm), tumaniga to'g'ri keladi.

Eng kam hajm Tomdi (6199,3 mln.so'm), Konimex (10040,6 mln.so'm), Nurota (19073,1 mln.so'm) tumanlarida kuzatilmoqda.

Ta'kidlash joizki, jismoniy va yuridik shaxslarning xizmatlarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish uchun xizmatlar sohasini hududlarda muvaffaqqiyatli faoliyat ko'rsatishini ta'minlamasdan turib viloyat iqtisodiyotining yirik tarmog'i sifatida xizmatlar sohasini jadal rivojlantirib bo'lmaydi.

### **2018 yil yanvar-mart oylarida viloyat bo'yicha jami xizmatlar hajmida hududlarning ulushi, % da**




Hududlar bo'yicha xizmatlar umumiyligi hajmida eng katta ulushni Navoiy shahri (57,8 %), Zarafshon shahri (7,3 %), Karmana (11,8 %), Qiziltepa (6,5 %), Xatirchi (5,4 %) tumanlari egallaydi.

Navoiy shahrida boshqa hududlarga nisbatan xizmatlar tarkibida moliyaviy xizmatlar, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari yuqori ulushlarni tashkil etadi.

2018 yil yanvar-mart oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 859,6 ming so'mga teng bo'ldi. O'sish sur'ati o'tgan yilga nisbatan 108,7 % ni tashkil etdi.

### **2018 yil yanvar-mart oylarida hududlar bo'yicha aholi jon boshiga ko'rsatkichlar**




Aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Navoiy shahrida - 3516,8 ming so'mni tashkil etdi.

Aholi jon boshiga xizmat ko'rsatishning eng past ko'rsatkichi Nurota tumanida - 212,8 ming so'mni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun, aholi soni nisbatan kam bo'lgan Uchquduq, Tomdi va Konimex tumanlarida o'rtacha jon boshiga ko'rsatkichlari aholi zich joylashgan hududlarga qaraganda ancha yaxshi ko'rindi.


### **2018 yil yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'y'cha bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, % da**



2018 yil yanvar-mart oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (493,3 %), moliyaviy xizmatlar (135,1 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (120,9 %), transport xizmatlari (110,4 %), ta'lim sohasidagi xizmatlar (109,0 %) kabi xizmatlarning o'sish sur'atlari yuqori sur'atlarda oshdi.

2018 yil yanvar-mart oylarida transport xizmatlari hajmini oshishiga ta'sir qilgan omillaridan biri yo'lovchi va yuklarni tashish xizmatlariga bo'lgan talabning oshishi hisoblanadi. Yo'lovchilarni havo transporti orqali tashish bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar hajmining oshishi Navro'z bayrami munosabati bilan arzonlashtirilgan narxlarda qo'shimcha qatnovlarning ko'paytirilishi bilan bog'liqdir. Shu bilan birga, moliyaviy xizmatlar, shuningdek, aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining o'sishi kuzatilmogda.

### **2018 yil yanvar-mart oylarida xizmatlar ishlab chiqarish tarkibi, % da**



Xizmatlar tarkibida eng katta ulush—savdo xizmatlari (36,4 %), transport xizmatlari (20,0 %), moliyaviy xizmatlar (12,4 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (6,1 %), ta'lim xizmatlari (3,6 %) tashkil etadi.